BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI O‘QITISH JARAYONIDA NUTQ O‘STIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Abduraxmonova Dinara Yusupovna - Jizzax davlat pedagogika universiteti “Boshlang ‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: dinara.abduraxmonova10@gmail.com

So‘z tovush yoki tovushlardan biror ma’no bildiruvchi nutq birligi, gap bo‘lagidir. So‘z yordamida biz aniq va mavhum tushunchalarni ifodalaymiz, fikrimizni bayon qilamiz. Hozirgi o‘zbek adabiy tili juda katta so‘z boyligiga ega. Jumladan, “O‘zbek tilining izohli lug‘atida” 80 000 so‘z va birikmaning ma’nosi izohlanadi. Bular, asosan, o‘zbek adabiy tilidagi umumxalq ishlatiladigan so‘z va birikmalardir. Bu lug‘atga kirmagan, lekin odamlar foydalanadigan qanchadan-qancha shevaga oid so‘zlar mutaxassislar foydalanadigan atamalar, iste’molda bo‘lgan joy nomlari, ism-familyalar, taxalluslar borki, ularning hammasi qo‘shib hisoblansa 300 mingdan oshadi. Tilimizda yuzlab so‘zlarning ko‘p ma’noga ega ekanligi, minglab so‘zlarning kamida 2-3 va hatto o‘nlab ma’nodoshlari borligi, juda ko‘p turg‘un birikmalar va tasviriy ifodalar mavjudligi hisobga olinsa, ularning miqdori yanada ortadi. [1,b.25-26]

O‘quvchilar lug‘atini bu boy xazina bilan boyitishning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u faqat ona tili mashg‘ulotlarida emas, balki faoliyatning barcha jabhalarida-oilada, ko‘chada, maktabda, boshqa fanlarni o‘qitish jarayonida bu so‘zlarni egallab boradi. Mtematika, fizika, kimyo, musiqa va boshqa fanlar, radio eshittirishlari va teleko‘rsatuvlar, matbuot, badiiy adabiyot, bolani o‘rab turgan ijtimoiy muhit –hamma-hammasi o‘quvchilar so‘z boyligini oshirish manbaidir. Maktabda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish murakkab jarayon bo‘lib u asosan quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

1. O‘quvchilarni ularga notanish so‘z va iboralar bilan tanishtirish. O‘quvchi nutqida faqat tilimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tufayli paydo bo‘layotgan so‘zlar emas, balki ular birinchi marta duch kelayotgan mavjud so‘zlar ham yangidir. O‘qish savodxonligi 4-sinf 2-qism darsligida uqsang (tushunib olsang), uddalolmas (bajara olmas), nuqul (doim), mag‘zin (mazmuni), muzofat (viloyat), dong‘i (ovozasi, dovrig‘i), suruv suruv ot (otlar to‘dasi), qiroatxona (kitob o‘qish xonasi) kifoya (yetarli), sas (tovush), madad (yordam), anduh (g‘am), kabi bir qator so‘z va iboralarga duch keladilarki, ular tilimizda yangi so‘z emas, ammo o‘quvchi uchun yangidir. O‘quvchilarni bunday yangi so‘zlar bilan tanishtirib borish ona tili va o‘qish mashg‘ulotlarining asosiy vazifasi sanaladi. Bundan tashqari o‘quvchi har kuni fan asoslarini o‘rganish jarayonida qanchadan-qancha yangi so‘zlarga duch keladi va ularning ma’nolarini bilib oladi. O‘quvchilar nutqini yangi so‘zlar bilan boyitish ayniqsa, ona tili fanining imkoniyatlari kattadir. Til hodisalarini o‘rganish jarayonida ularga notanish bo‘lgan yangi so‘zlar va atamalarning ma’nolari izohlab boriladi. [2,b.6-7]



2. O'quvchilarni so'zning yangi ma'nolari bilan tanishtirish. O'quvchilar ko'p ma'noli so'zlarning barcha ma'nolarini birdaniga o'zlashtirib ololmaydi. Bu murakkab jarayon bosqichma-bosqich amalga oshadi. Bola quyi sinflarda so'zning ma'lum bir ma'nosiga duch kelsa, keying sinflarda shu so'znining boshqa ma'nolari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi bola nutqini doimiy tahlil qilib borishi, iste'molda bo'lmagan ko'p ma'noli yoki ma'nodosh so'zlarni aniqlash, ularni qaysi yo'llar bilan o'quvchi nutqiga olib kirish choralarini ko'rish lozim. Tilning barcha sathlarini o'rganishda omonimlar, ma'nodosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar, uyadosh so'zlar, tasviriy ifoda va iboralar ustida ish olib borish bu murakkab vazifani amalga oshirishning eng qulay yo'llaridan biridir.[3, b.1-2]

3. O'quvchi nutqidagi kam iste'mol so'zlarni iste'molli so'zlarga aylantirish. Ko'p hollarda o'quvchi so'zning ma'nosini bilsada, ammo nutqda undan deyarli foydalanmaydi. Bu holni bartaraf etish uchun matndagi ma'lum bir so'zni uning ma'nodoshlari, uyadoshlari, qarama-qarshi ma'nolilari bilan almashtirish, nuqtalar o'rniga mazmunga muvofiq keladigan zarur so'zni topib qo'yish kabi amaliy ishlardan unumli foydalansa bo'ladi.

4. O'quvchi nutqidagi adabiy tilga zid so'zlarni bartaraf etish. O'quvchilar nutqida adabiy tilda boshqacha aytiladigan yoki umuman adabiy tilda bo'lmagan bir qator so'zlar (shevaga oid so'zlar, arxaik so'zlar) borki, ular nutqning sofligi, tushunarliligi, badiiyligiga putur yetkazadi. Bu salbiy holning oldini olish uchun ko'proq talaffuzi va yozilishi adabiy tildan farq qiluvchi so'zlarni adabiy tilda yozish, matndagi shevaga oid so'zlar yoki arxaik so'zlarni adabiy tildagi so'zlar bilan almashtirishda foydalanish mumkin.

O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, qaysi so'zlar o'quvchining lug'atiga kiritish, qaysi so'zlarning ma'nolari izohlab berilishini aniqlab olishi zarur. O'quvchilarning so'z boyligini oshirishda quyidagi usullardan foydalanishi maqsadga muvofiq deb bilamiz:

1. So'zning ma'nosini taqqoslash va ularni sharhlash. Bu usul ko'proq ma'nosi va shakli bir-biriga yaqin yoki keskin farq qiladigan so'zlarni izohlashda qo'l keladi. Tilimizda bunday so'zlar anchagina qismini tashkil etadi. Masalan: i-u tovush (harf)larning talaffuzi va imlosi o'rganilar ekan, urush-urish, tushum-tushim singari so'zlarni taqqoslash orqali ularning ma'nosi, talaffuzi, imlosini sharhlash mumkin. Qo'shma otlar va ularning ilmosi haqida gap ketganda paxtagul, boshog'riq, gulbozor singari qo'shma otlarni paxta guli, bosh og'rig'i, gul bozori singari so'z birikmalari bilan taqqoslash orqali ularning ma'no va imlo farqlarini bilib olish mumkin.

2. So‘zlarni kuzatish. Kuzatish va taqqoslash kabi keng qo‘llaniladigan aqliy faoliyat usuli bo‘lib, unga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishga samarali ta'sir ko‘rsatadi. Bunday topshiriqlardan darsning istalgan bosqichida unumli foydalanish mumkin. Ular ayniqsa ona tilidan yangi bilimlar berishda ancha qo‘l keladi. O‘quvchilar berilgan so‘z va birikmalarni kuzatib, ulardan o‘zlariga zarur narsalarni ajratib oladilar va shu asosda muayan xulosaga keladilar. Masalan, “Sodda qo‘shma va juft so‘zlar mavzuni o‘rganishda matndan ikki va undan ortiq o‘zak qo‘shib yozilgan so‘zlarni (masalan: belbog‘, k o‘zoynak kabi) ajtarish, ularning tarkibiy qismlari va birikishini aniqlash, bu so‘zlarga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish (belbog‘li, ota-onali kabi) ularning ma'nolarini izohlash kabi amaliy ishlardan foydalansa bo‘ladi.

3. So‘zlarni ma'lum belgilariga qarab guruhlarga ajratish. Guruhlash aqliy faoliyat usuli bo‘lib, u ona tili mashg‘ulotlarida bolalarning so‘z boyligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu usul so‘zlarni anglatayotgan ma'nosi, so‘z turkumi, yasalishi, imlosi,uyasi kabilarga ajratish imkonini beradi. Guruhlash kuzatish va taqqoslash bilan chambarchas bog‘langan. So‘zlarni guruhlash uchun avvalo chambarchas bog‘langan. So‘zlarni guruhlash uchun avvalo kuzatish yoki taqqoslashdan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

4. Ma'lum bir guruhdagi so‘zlar ro‘yxatini mustaqil ravishda tuzish. O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish maqsadida ularga ma'lum bir guruhdagi so‘zlar lug‘atini tuzisni ham topshirish mumkin. Shubhasiz bunday lug‘atlarni dars jarayonida tuzish ancha murakkabdir. Shuning uchun mustaqil ishning bu turi ma'lum bir mavzu o‘rganilgandan keyin uy vazifasi sifatida topshirish maqsadga muvofiqdir. Lug‘at tuzish uchun o‘quvchilar ma'lum bir kasb egalari, ota-onalari, keksalar bilan suhbatda bo‘ladilar, mavjud izohli lug‘atlarga murojaat qiladilar.[1,b.26-27]

Shunday qilib, ona tilini o‘qitish jarayonida bolalar nutqini rivojlantirish birinchi navbatda ularning so‘z boyligini oshirishni taqazo etadi. O‘quvchilarni doimiy ravishda ular birinchi marta duch kelayotgan yangi so‘zlar hamda fan texnika taraqqiyoti natijasida tilimizga kirib kelayotgan yangi so‘zlar bilan tanishtirib borish, so‘zlarning yangi ma'no qirralarini ochib berish nutqda, nutqdagi kam qo‘llaniladigan so‘zlarni ko‘p qo‘llaniladigan so‘zlarga aylantirish o‘qituvchi shuningdek, oila va jamoatchilikning asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.G‘ulomov., Sh.Qobilova Nutq o‘stirish mashg ‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma.T: O‘qituvchi. 1995.

2. U.B.Aydarova., N.K.Azizova “O‘qish savodxonligi” 4-sinf 2-qism Novda edutainment.Toshkent-2023.

3. Abduraxmonova D.Yu. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozma nutqiy kompetensiyalarini takomillashtirish omillari // Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendiriy Imliy-metodik jurnal. Qaraqolpog‘iston Respublikasi: 2022 y. № 4/1. B. 128-132.

4. Abduraxmonova D.Y. Boshlang‘ich ta'limda ijodiy yozma ishlarni tashkil etish usullari // Xalq ta'limi ilmiy-metodik jurnal. Toshkent: 2022 y. № 6. B. 38-41

5. Abduraxmonova D.Yu. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida kichik ijodiy hikoyalar yozishga o‘rgatish // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnoma. Namangan 2022 yil, 11-son. B.358-262.